

**“FUQARO MUHOFAZASI TIZIMIDA MA’NAVIY-PSIXOLOGIK
TAYYORGARLIKNING TARIXIY RIVOJI VA INNOVATSION
ISTIQBOLLARI”**

O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi
kafedra katta o‘qituvchisi
Teshaboyev Boburjon Abror o‘g‘li

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada fuqaro muhofazasi tizimi xodimlarining ma’naviy va psixologik tayyorgarligini shakllantirish masalalari kompleks tarzda o‘rganilgan. Tadqiqotda favqulodda vaziyatlar sharoitida inson omilining ahamiyati, qutqaruvchilarning kasbiy yaroqliligi, ruhiy barqarorlik darajasi hamda ekstremal sharoitlarda qaror qabul qilish qobiliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlari tahlil qilingan. Maqolada ma’naviy-psixologik tayyorgarlikning uch bosqichli tizimi — dastlabki ruhiy tayyorgarlik, faoliyat davomida psixologik yordam ko‘rsatish va reabilitatsiya bosqichlari ilmiy asosda yoritilgan. Har bir bosqichning mazmuni, maqsadi hamda ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi tahlil qilinib, amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari taklif etilgan. Shuningdek, qutqaruvchilarda vatanparvarlik, fidoyilik, irodaviy barqarorlik, axloqiy poklik kabi sifatlarni shakllantirishning tarbiyaviy usullari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fuqaro muhofazasi tizimi samaradorligini ta’minlashda inson omilining — xodimlarning ma’naviy, ruhiy va kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish — hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan psixologik tayyorgarlik tizimi favqulodda vaziyatlarda tezkor, puxta va xavfsiz qarorlar qabul qilishni ta’minlaydi, natijada jamiyat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: fuqaro muhofazasi, ma’naviy-psixologik tayyorgarlik, qutqaruvchi, favqulodda vaziyat, psixologik barqarorlik, kasbiy yaroqlilik, ruhiy reabilitatsiya, xavfsizlik tizimi.

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ ДУХОВНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ В СИСТЕМЕ ГРАЖДАНСКОЙ ЗАЩИТЫ

Аннотация

В данной научной статье всесторонне исследованы вопросы формирования духовно-психологической подготовки сотрудников системы гражданской обороны. В исследовании анализируются значение человеческого фактора в условиях чрезвычайных ситуаций, профессиональная пригодность и психологическая устойчивость спасателей, а также социально-психологические аспекты принятия решений в экстремальных условиях.

Раскрыта трехступенчатая система духовно-психологической подготовки: начальная подготовка, психологическая поддержка в процессе деятельности и этап реабилитации. Определены цели, содержание и взаимосвязь каждого этапа, предложены практические механизмы внедрения в деятельность подразделений гражданской обороны. Особое внимание уделено воспитанию у спасателей таких качеств, как патриотизм, чувство долга, самоотверженность, моральная стойкость и стрессоустойчивость.

Результаты исследования показывают, что развитие духовно-психологической устойчивости персонала является важнейшим условием повышения эффективности системы гражданской обороны и национальной безопасности. Комплексная подготовка способствует оперативному и безопасному выполнению задач при ликвидации последствий чрезвычайных ситуаций.

Ключевые слова: гражданская оборона, духовно-психологическая подготовка, спасатель, чрезвычайная ситуация, психологическая устойчивость, профессиональная пригодность, реабилитация, безопасность.

THE HISTORICAL DEVELOPMENT AND INNOVATIVE PROSPECTS OF MORAL AND PSYCHOLOGICAL TRAINING IN THE CIVIL DEFENSE SYSTEM

Annotation

This scientific article provides a comprehensive analysis of the development of moral and psychological training among civil defense specialists. The study emphasizes the importance of the human factor in emergency situations, focusing on the rescuers' professional competence, psychological resilience, and their decision-making capabilities under extreme conditions.

The research elaborates on a three-stage system of moral and psychological preparation: initial psychological readiness, in-service psychological support, and post-operation rehabilitation. The purpose, content, and interconnection of each stage are defined, and practical mechanisms for implementation within the civil defense system are proposed. The article also highlights the formation of key personal qualities such as patriotism, selflessness, discipline, moral stability, and emotional endurance as essential elements of effective performance.

The findings demonstrate that strengthening the moral and psychological preparedness of civil defense personnel significantly enhances the overall efficiency of the national emergency management system. An integrated and innovative training approach ensures the ability to respond rapidly and effectively to emergencies, ultimately contributing to public safety and social stability.

Keywords: civil defense, moral and psychological training, rescuer, emergency situation, psychological resilience, professional competence, rehabilitation, safety management system.

Favqulodda vaziyat tushunchasi, mohiyatan, inson hayoti, sog'lig'i va atrof-muhit xavfsizligiga jiddiy tahdid soluvchi holatni anglatadi. U ma'lum bir hududda tabiiy yoki texnogen omillar, jumladan, avariya, halokat, stixiyali ofat, epidemiyalar yoki epizootiyalar natijasida yuzaga kelib, insonlar orasida talafotlarga, moddiy zarar ko'lamining kengayishiga hamda ijtimoiy hayot barqarorligining buzilishiga olib kelishi mumkin. Favqulodda vaziyatlar o'z tabiatiga ko'ra, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik tizimlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi hamda davlat tomonidan ularni bartaraf etish va oqibatlarini yumshatishga qaratilgan kompleks choralarni talab etadi¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.10.1998 yildagi "Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida" 455-son qarori.

Insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyot jarayoni tarixan turli avariylar, falokatlar va tabiiy ofatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Ushbu hodisalar ilmiy adabiyotlarda favqulodda vaziyatlar (FV) tushunchasi bilan ifodalanadi. Favqulodda vaziyatlar o'z tabiatiga ko'ra jamiyat hayotiga jiddiy zarar yetkazuvchi omil bo'lib, ular natijasida insonlar jarohatlanadi yoki halok bo'ladi, moddiy hamda ma'naviy yo'qotishlar yuzaga keladi.

Bunday holatlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish hamda xavfsizlik choralari ko'rish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish jarayonida eng mas'uliyatli bosqichlardan biri — jabrlangan fuqarolarni qidirish, evakuatsiya qilish va ularga shoshilinch tibbiy hamda psixologik yordam ko'rsatishdan iborat.

Mazkur jarayonlarni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining vakolatiga kiradi. Ushbu vazirlik tizimida faoliyat yurituvchi qutqaruvchilar maxsus dasturlar asosida tayyorgarlikdan o'tadi, belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi hamda favqulodda vaziyatlar sharoitida amaliy harakatlarni samarali bajarishga yo'naltirilgan malakali kuch sifatida maydonga chiqadilar².

Favqulodda vaziyatlarning turli shakl va ko'rinishlari ularning oqibatlarini bartaraf etish jarayonida murakkab mehnat sharoitlarini yuzaga keltiradi. Bunday sharoitlarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar oldiga yuqori darajadagi kasbiy, jismoniy hamda ruhiy tayyorgarlik talablarini qo'yadi. Chunki har bir favqulodda vaziyat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni bartaraf etish usullari, xavfsizlik choralari qo'llash mexanizmlari va tashkilotchilik darajasi jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Shu sababli, bunday holatlarda samarali harakatni ta'minlash uchun qutqaruvchilarning maxsus tayyorgarligi, psixologik bardoshlilik va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Qutqaruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasi, avvalo, ularning kasbiy yaroqliligiga bevosita bog'liqdir. Kasbiy yaroqlilik inson shaxsiga tabiiy tarzda berilmaydi, balki u o'qish, o'rganish hamda amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi va takomillashadi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyatli kechishi moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining samaradorligiga, kasbiy faoliyatdan qoniqish hissining

² O'zbekiston Respublikasining 26.12.2008 yildagi "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida"gi qonuni.

shakllanishiga hamda mehnat natijalarining ijtimoiy ahamiyatini anglash darajasiga bog'liq bo'ladi. Shu jihatdan, qutqaruvchilarni tayyorlashda ularning kasbiy motivatsiyasini kuchaytirish, faoliyatga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirish va ijtimoiy e'tirof mexanizmlarini rivojlantirish muhim omil hisoblanadi³.

Shakllangan kasbiy muvofiqlik inson shaxsining barcha tashqi ko'rinishida, xatti-harakatlari va psixomotor qobiliyatlarida o'z ifodasini topadi. Bu holat, shuningdek, mutaxassisning nutq madaniyati, fikrlash uslubi, kasbiy stereotiplari hamda uning munosabatlari va qadriyat yo'nalishlarida chuqur iz qoldiradi. Natijada, kasbiy faoliyat jarayonida shaxsning ichki dunyosi bilan tashqi ifodasi o'rtasida uyg'unlik yuzaga keladi, bu esa kasbiy samaradorlikning muhim psixologik omili sifatida namoyon bo'ladi⁴.

Fuqaro muhofazasi va yong'in-qutqaruv sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u nafaqat texnik, balki ma'naviy-psixologik omillarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu tayyorgarlikning samaradorligi ko'p jihatdan qutqaruvchining kasbiy yaroqliligi, mas'uliyat hissi va favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga bog'liqdir.

Kasbiy tayyorgarlikning asosiy yo'nalishlari quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

- favqulodda vaziyatlarda holatni to'g'ri baholash va eng maqbul qarorlarni tezkor qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- xavfli omillarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularning rivojlanish ehtimolini tahlil qilish;
- zamonaviy texnik vositalar yordamida jabrlanganlarni izlash va ularga birlamchi tibbiy hamda psixologik yordam ko'rsatish usullarini mukammal egallash;
- turli tabiiy-iqlim sharoitlarida, kunduzgi va tungi paytlarda xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda qidiruv-qutqaruv hamda tiklash ishlarini amalga oshirish;
- yong'in o'chirishning ilg'or texnologiyalari va himoya vositalaridan samarali foydalanish;

³ Б.С.Корзунин, Д.Н.Цефрус Нервно-психическая устойчивость как критерий профессиональной адаптации / Психолого-педагогические проблемы безопасности человека и общества. 2015. № 2 (27)

⁴ В.А. Пучкова Защита населения в чрезвычайных ситуациях: учебник / под общей ред. – 2015. Стр 58

– jabrlanganlarga ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish orqali vahima holatlarini bartaraf etish.

Mazkur tayyorgarlik yo'nalishlari fuqaro muhofazasi tizimi xodimlarining har tomonlama rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar qutqaruvchilarning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligi bilan uzviy bog'liq bo'lib, aynan shu jihat ularning professional faoliyatdagi barqarorligini ta'minlaydi.

Axloqiy-psixologik tayyorgarlik — bu xodimlarda zarur bo'lgan ma'naviy, ruhiy va kasbiy fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir. Uning asosiy maqsadi qutqaruvchilar ongi va xulq-atvorida vatanparvarlik, mas'uliyat, intizom, halollik, fidoyilik kabi qadriyatlarni mustahkamlashdir. Shu bilan birga, har qanday murakkab vaziyatda psixologik barqarorlikni saqlash, jamoada sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratish, o'zaro hurmat va hamkorlikni rivojlantirish ham ushbu tayyorgarlikning ajralmas qismidir.

Axloqiy-psixologik tayyorgarlik jarayoni uzluksiz pedagogik faoliyatning bir yo'nalishi sifatida amalga oshiriladi. U doimiy o'quv mashg'ulotlari, amaliy mashqlar, psixologik treninglar, shuningdek, xodimlarni stress omillaridan himoya qilishga qaratilgan maxsus tadbirlar orqali bajariladi. Bu jarayonda boshqaruv organlari va rahbar tarkibining roli beqiyosdir, chunki ular xodimlarda yuqori ma'naviy barqarorlik, ruhiy chidamlilik va jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish uchun mas'uldir⁵.

Shu tarzda, fuqaro muhofazasi tizimi mutaxassislarining kasbiy va axloqiy-psixologik tayyorgarligi — bu ularning favqulodda vaziyatlarda samarali, tezkor va xavfsiz faoliyat yuritish qobiliyatini belgilovchi eng muhim omil hisoblanadi.

Fuqaro muhofazasi va yong'in-qutqaruv xizmatlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligi faqat texnik va jismoniy jihatlar bilan chegaralanmaydi. Ularning professional salohiyati, avvalo, psixologik barqarorlik, axloqiy tayyorgarlik va ekstremal vaziyatlarga ijobiy munosabat orqali belgilanadi. Shu sababli, qutqaruvchilarda ruhiy barqarorlikni shakllantirish, xavfli sharoitlarda faoliyat olib borishga psixologik tayyorgarlikni mustahkamlash maqsadida maxsus tadbirlar tizimli ravishda amalga oshiriladi.

⁵ М.Г. Ковтунович; Н.В. Рожков; С.Н. Ениколопов; Е.В. Орлова.

Психологическая подготовка спасателей / под общей ред. М.Г. Ковтунович. – М., 2007

Bunday tadbirlar qutqaruvchilarda xavf omillariga nisbatan ijobiy faol munosabatni shakllantirish, ekstremal vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish va ruhiy muvozanatni saqlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu jarayonning muhim yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- yong'in-qutqaruv qismlari xodimlarida psixologik barqarorlikni, ruhiy chidamlilikni va stressga bardoshlilikni rivojlantirish;
- og'ir va xavfli sharoitlarda faoliyat yuritish uchun zarur axloqiy-psixologik kayfiyatni shakllantirish;
- qutqaruv ishlarida ishonchlilikni, o'zaro hamjihatlikni va tezkor harakatni ta'minlaydigan ruhiy tayyorgarlikni mustahkamlash;
- xavfli vaziyatlarda samarali faoliyat yuritish uchun ichki motivatsiyani oshirish hamda o'z kuchiga ishonchni kuchaytirish.

Ushbu jarayon orqali qutqaruvchilar ekstremal vaziyatlarni tabiiy faoliyat sohasi sifatida qabul qilishni o'rganadilar. Bu esa ularga har qanday noxush holatda o'zini yo'qotmasdan, mavjud resurslar, bilim va tajribani tezkor safarbar etish imkonini beradi.

Favqulodda vaziyatlarda samarali harakat qilishga tayyorlik — bu shunchaki amaliy malaka emas, balki ichki psixologik holat, xodimning o'z vazifasiga, jamoaga va fuqarolarga nisbatan mas'uliyat hissining yuksak darajasidir. Shuning uchun ham, yong'in-qutqaruv xizmatlari tizimida psixologik tayyorgarlikni shakllantirish har bir xodimning professional rivojlanishining ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Bu boradagi treninglar, maxsus mashg'ulotlar, simulyatsiya asosidagi psixologik sinovlar va o'zaro hamkorlik mashqlari qutqaruvchilarning mashg'ulotdagi har bir harakatni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Natijada, xodimlarning o'zini tutish madaniyati, stressga bardoshlilik darajasi va jamoaviy muvofiqlashuv ko'nikmalari sezilarli darajada ortadi.

Shunday qilib, fuqaro muhofazasi tizimida xodimlarning psixologik tayyorgarligini shakllantirish — bu ularning professional tayyorgarligining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, favqulodda vaziyatlarda inson hayotini saqlab qolish samaradorligini bevosita ta'minlaydi.

Yong'in-qutqaruv xizmatlari xodimlarining ma'naviy-psixologik tayyorgarligini tashkil etish jarayoni murakkab tizim bo'lib, u uch asosiy bosqichni o'z ichiga oladi⁶:

1. Dastlabki ma'naviy va psixologik tayyorgarlik. Ushbu bosqichda qutqaruvchilarda kasbiy faoliyatning maqsadi, ahamiyati va insoniy qadriyatlar to'g'risida to'liq tasavvur shakllantiriladi. Xodimlar o'z kasbining ijtimoiy mas'uliyatini chuqur anglab yetadi, burch, fidoyilik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalanadi. Shuningdek, bu bosqichda psixologik barqarorlikning asoslari, stress holatlarida o'zini tuta bilish ko'nikmalari va jamoaviy muloqot madaniyati shakllantiriladi.

2. Ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish. Bu bosqich qutqaruvchilar ekstremal sharoitlarda faoliyat olib borayotgan paytda ularning ruhiy holatini barqarorlashtirish, stressni kamaytirish va faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ma'naviy-psixologik yordam jarayonida shaxsning ichki motivatsiyasi, o'ziga ishonchi va professional ruhiy tayyorgarligi mustahkamlanadi. Zarur hollarda psixologik maslahat, psixoprofilaktika mashg'ulotlari va reabilitatsiya tadbirlari o'tkaziladi.

3. Axloqiy-psixologik sifatlarni chuqur anglash va mustahkamlash. Yakuniy bosqichda qutqaruvchilar o'z faoliyatida halollik, intizom, jasorat, hamjihatlik, hamdardlik kabi axloqiy qadriyatlarni amaliyotda namoyon etish darajasiga yetkaziladi. Bu jarayon davomida shaxsda kasbiy o'zini anglash, psixologik yetuklik va jamoaviy mas'uliyat hissi yanada mustahkamlanadi.

Mazkur uch bosqich bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, yong'in-qutqaruv xodimining kasbiy barqarorligi, psixologik chidamliligi va ma'naviy yetukligini shakllantirishda yagona tizimni tashkil etadi.

Ma'naviy-psixologik tayyorgarlikning birinchi va ikkinchi bosqichlari.

Birinchi bosqich – dastlabki ma'naviy-psixologik tayyorgarlik. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi – har bir qutqaruvchini bo'lajak kasbiy faoliyatga ruhiy jihatdan tayyorlash, favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq muammolarni hal etishdagi shaxsiy yondashuvni shakllantirish va kelajakdagi kasbiy faoliyatning psixologik modelini yaratishdan iboratdir⁷.

⁶ Технология ведения поисково-спасательных работ при ликвидации чрезвычайных ситуаций. М.: 2011, стр 286.

⁷ Niyozov S. "Ekstremal holatlarda psixologik barqarorlikni shakllantirish." – Ilm va amaliyot, №2, 2021.

Dastlabki ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik jarayoni quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- xavfli holatlar bilan ilk marta to'qnashuvga tayyorlikni shakllantirish;
- yuqori darajadagi ruhiy barqarorlik va motivatsiyani rivojlantirish;
- qutqaruvchining hissiy-irodaviy bardoshlilikini oshirish hamda uzoq davom etuvchi stress sharoitida ham faoliyatni samarali davom ettirish qobiliyatini mustahkamlash;
- ekstremal holatlarda tez va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar tizimi rahbarlari hamda qo'mondonlik tarkibida inson resurslarini boshqarish malakasini oshirish;
- har xil turdagi favqulodda holatlar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha qutqaruv ishlarini bajarish jarayonida muvofiqlashtirish va jamoaviy hamjihatlikni rivojlantirish.

Ushbu bosqichda shakllantirilgan bilim, ko'nikma va ruhiy tayyorgarlik qutqaruvchining kelgusidagi kasbiy faoliyatida psixologik chidamlilik, mas'uliyat va fidoyilikning mustahkam poydevorini yaratadi.

Ikkinchi bosqich – ma'naviy-psixologik yordam va ruhiy holatni barqarorlashtirish. Bu bosqichning maqsadi – qutqaruvchilarda dastlabki shakllangan ma'naviy-ruhiy barqarorlikni saqlab qolish, shuningdek, uzoq muddatli, jismoniy va ruhiy jihatdan murakkab sharoitlarda ularning faolligini yuqori darajada ushlab turishdan iborat.

Ushbu davrda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- xizmat faoliyatida yuzaga keladigan ortiqcha yuklama va stress holatlarining salbiy ta'sirini kamaytirish;
- shaxsiy motivatsiyani, kasbiy burchni his etish va jamoaviy ruhni qo'llab-quvvatlash;
- qutqaruvchilarga psixologik yordam ko'rsatish, ularning emotsional holatini muvozanatlashtirish;
- yuqori ma'naviy turtkini saqlash va kasbiy g'urur hissini mustahkamlash;
- og'ir va xavfli vaziyatlarda qaror qabul qilishda ichki ishonch va barqarorlikni ta'minlash.

Natijada, ikkinchi bosqichda qutqaruvchilarning kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilishga tayyorligi, ruhiy bardoshlilik hamda ma'naviy-axloqiy motivatsiyasi yanada kuchayadi.

Ma'naviy va psixologik yordam mazmuni hamda ahamiyati. Uchinchi bosqichning asosiy maqsadi — qutqaruvchilarda yuzaga keladigan psixologik stressni bartaraf etish, ularning ma'naviy va jismoniy kuchini tiklash, shuningdek, og'ir sharoitlarda xizmat faoliyatini davom ettirishga ruhiy barqarorlikni ta'minlashdan iboratdir.

Mazkur bosqichda amalga oshiriladigan ma'naviy-psixologik yordamning mazmuni bir qator muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

turli xarakterdagi favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish jarayoniga ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish;

qutqaruvchilarning ruhiy holatini o'rganish, ularning kayfiyati va faoliyatga munosabatini tahlil qilish orqali tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish;

avariya-qutqaruv ishlariga nisbatan sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, bu orqali ijtimoiy e'tirof va kasbiy g'ururni oshirish;

qutqaruvchilarni qo'rquv, befarqlik va noaniqlik tuyg'ularini yengishga ruhiy tayyorlash;

har bir xodimning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni mos vazifalarga joylashtirish;

qutqaruv ishlari olib borilayotgan hududlarda hayot faoliyati xavfsizligini tashkil etish va ularning sog'lig'ini muhofaza qilish;

qutqaruvchilarga ta'sir etuvchi salbiy psixologik va fiziologik omillarni aniqlash va kamaytirish;

ijtimoiy himoya choralari amalga oshirish, ularning ehtiyoj va talablarini o'z vaqtida qondirish;

o'z xizmat burchini yuksak darajada bajargan qutqaruvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish.

Bu bosqichda, shuningdek, qutqaruvchilarning ruhiy barqarorligini saqlab qolish, stressni yengish va faoliyat davomida ijobiy psixologik kayfiyatni tiklashga qaratilgan turli psixologik reabilitatsiya tadbirlari o‘tkaziladi. Bunga quyidagilar kiradi⁸:

tibbiy-psixologik maslahat va muolajalar;
dam olish va tiklanish dasturlari;
ijtimoiy-psixologik treninglar;
jamoaviy psixoterapiya mashg‘ulotlari;
oila bilan muloqotni tiklash va ijtimoiy reabilitatsiya choralari.

Ma’naviy-ruhiy yengillik chora-tadbirlari qutqaruvchilarning ruhiy sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularning mehnat qobiliyatini tiklash va xizmat faoliyatiga qayta jalb etish imkonini beradi. Bunday kompleks yondashuv fuqaro muhofazasi tizimida inson omilining ustuvorligini ta’minlaydi.

Fuqaro muhofazasi mutaxassislarining zamonaviy talablar asosida shakllantirilgan ma’naviy-psixologik tayyorgarligi favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish jarayonida yong‘inlarni muvaffaqiyatli o‘chirish va qutqaruv ishlarini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Natijada, ma’naviy-psixologik tayyorgarlik tizimining samaradorligi, eng avvalo, xodimlarning ruhiy holatini muntazam o‘rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash, shuningdek, bu yo‘nalishda doimiy takomillashtirish choralari belgilash bilan ta’minlanadi. Ushbu jarayon O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, qutqaruvchilarning ma’naviy barqarorligini rivojlantirish hamda ularni turli tabiiy, texnogen va ijtimoiy favqulodda vaziyatlarda samarali harakat qilishga tayyorlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan xulosa qiladigan bo‘lsak, fuqaro muhofazasi xodimlarining ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini ta’minlash masalasi zamonaviy xavfsizlik tizimining eng muhim tarkibiy qismidir. Insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotining barcha bosqichlarida favqulodda vaziyatlar mavjud bo‘lib, ular jamiyat barqarorligiga, ijtimoiy-psixologik muvozanatga va iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelgan. Shu sababli, bugungi kunda favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini kamaytirish,

⁸ Nicki Marquardt, Lisa Krämer & Verena Schürmann. Mental preparation strategies and firefighter’s performance under stress. International Journal of Safety and Security Engineering. Volume 9 (2019), Issue 4. 332 – 343 pages.

inson hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, shuningdek, ularni bartaraf etishda samarali inson resursini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Fuqaro muhofazasi tizimida xizmat qiluvchi mutaxassislarning kasbiy muvaffaqiyati faqat texnik va jismoniy tayyorgarlikka emas, balki chuqur ma‘naviy-psixologik barqarorlikka ham bevosita bog‘liqdir. Ma‘naviy-ruhiy tayyorgarlik qutqaruvchilarning kasbiy faoliyatida stressga bardoshlilik, irodaviy mustahkamlik, o‘zini tuta bilish, fidoyilik, jamoaviy muvofiqlik va qaror qabul qilish tezkorligini ta‘minlovchi psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fuqaro muhofazasi xodimlarining ma‘naviy-psixologik tayyorgarligini samarali shakllantirish uch bosqichli tizim asosida amalga oshiriladi: dastlabki tayyorgarlik, faoliyat davomida psixologik yordam ko‘rsatish va axloqiy-psixologik sifatlarni mustahkamlash. Har bir bosqichda xodimning shaxsiy motivatsiyasi, kasbiy burch hissi, ijtimoiy javobgarligi va vatanparvarlik ruhini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Birinchi bosqichda — dastlabki tayyorgarlik jarayonida, qutqaruvchilarda kasb mohiyatini anglash, xavfli vaziyatlarga nisbatan ijobiy munosabat, hissiy-irodaviy barqarorlikni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ikkinchi bosqichda — ma‘naviy va psixologik yordam ko‘rsatish orqali xodimlarning faoliyat jarayonida psixologik barqarorligi ta‘minlanadi, stress holatlarini yengish, motivatsiyani saqlash va jamoaviy muhitni sog‘lomlashtirishga erishiladi. Uchinchi bosqich esa — reabilitatsiya va ma‘naviy tiklanish bosqichi bo‘lib, unda qutqaruvchilarning ruhiy salomatligi, mehnat qobiliyati va ijtimoiy faolligini tiklash chora-tadbirlari amalga oshiriladi.

Innovatsion yondashuvlar nuqtayi nazaridan, zamonaviy psixologik treninglar, simulyatsiya mashg‘ulotlari, stressga bardoshlilikni baholovchi test tizimlari, virtual muhitda modellashtirish texnologiyalarini joriy etish fuqaro muhofazasi xodimlarining ma‘naviy-psixologik tayyorgarligini yanada takomillashtiradi. Bu esa nafaqat qutqaruvchilarning individual darajadagi tayyorgarligini oshiradi, balki butun tizimning institutsional samaradorligini ta‘minlaydi.

Shu bilan birga, ma‘naviy-psixologik tayyorgarlik tizimi faqat shaxsiy omillarni emas, balki ijtimoiy-axloqiy muhitni, jamoaviy qadriyatlarni, hamkorlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar bilan boyitilishi lozim. Chunki

ma'naviy barqarorlik — bu nafaqat individual fazilat, balki jamoaviy ruhning ham ifodasidir.

Umuman olganda, fuqaro muhofazasi xodimlarining ma'naviy-psixologik tayyorgarligini ta'minlashda innovatsion yondashuvlar — bu zamonaviy xavfsizlik konsepsiyasining ajralmas elementi bo'lib, inson omilining ustuvorligini ta'minlaydi. Ushbu yo'nalishda tizimli ishlar olib borish O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimining insoniy resurslarini mustahkamlash, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish samaradorligini oshirish va fuqarolarning hayot xavfsizligini kafolatlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.



GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 26.12.2008-yildagi “Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.10.1998-yildagi “Texnogeneen, tabiiy va ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida” 455-son Qarori.
3. Б.С.Корзунин, Д.Н.Цефрус Нервно-психическая устойчивость как критерий профессиональной адаптации / Психолого-педагогические проблемы безопасности человека и общества. 2015. № 2 (27).
4. В.А. Пучкова Защита населения в чрезвычайных ситуациях: учебник / под общей ред. – 2015. Стр 58.
5. М.Г. Ковтунович; Н.В. Рожков; С.Н. Ениколопов; Е.В. Орлова. Психологическая подготовка спасателей / под общей ред. М.Г. Ковтунович. – М., 2007.
6. Технология ведения поисково-спасательных работ при ликвидации чрезвычайных ситуаций. М.: 2011, стр 286.
7. Niyozov S. “Ekstremal holatlarda psixologik barqarorlikni shakllantirish.” – Ilm va amaliyot, №2, 2021.
8. Nicki Marquardt, Lisa Krämer & Verena Schürmann. Mental preparation strategies and firefighter’s performance under stress. International Journal of Safety and Security Engineering. Volume 9 (2019), Issue 4. 332 – 343 pages.